

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TULISHOVA GULZINA RAVSHANOVNA

**TANQID VA ADABIYOTSHUNOSLIGIMIZ RIVOJIDA
OZOD SHARAFIDDINOV IJODINING O'RNI VA AHAMIYATI**

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Tulishova Gulzina Ravshanovna

Tanqid va adabiyotshunosligimiz rivojida Ozod Shararafiddinov ijodining
o‘rni va ahamiyati..... 3

Тулишева Гулзина Равшановна

Роль и значение Азода Шарафиддинова в развитии критики и
литературоведения 19

Tulishova Gulzina Ravshanovna

The role and importance of the work of Azod Sharafiddinov
in the development of criticism and literary studies 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 39

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TULISHOVA GULZINA RAVSHANOVNA

**TANQID VA ADABIYOTSHUNOSLIGIMIZ RIVOJIDA
OZOD SHARAFIDDINOV IJODINING O'RNI VA AHAMIYATI**

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4079 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasi (jdpu.uz)da va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali manzillariga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qosimov Usmon

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nosirov Azmiddin Normamatovich

filologiya fanlari doktori, professor

Kuchkarov Raxmon Urmanovich

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jspu@umail.uz) Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya va avtoreferat bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

U.A.Jumanazarov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

filologiya fanlari doktori, professor

F.E.Ibragimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy

kengash ilmiy kotibi,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

F.G.Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy

kengash qoshidagi Ilmiy

seminar raisi o'rinbosari,

filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida tanqid, adabiy tanqid, tanqidchilik, ya'ni adabiy faoliyat turi, badiiy asarni, shuningdek, bu asarda aks ettirilgan hayot hodisalarini tahlil va talqin etish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. XVI-XVIII asrlarda Yevropa xalqlari adabiyotida estetik tafakkurning shakllanishi bilan tanqidchilik adabiy harakatning muhim qismi sifatida ajralib chiqqan bo'lsa, XIX asrda Fransiyada Sh.O.SentByov boshchiligidagi „biografik tanqid“ning, Rossiyada V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubov, N.G.Chernishevskiy singari rus tanqidchilari maktabining shakllanishi bilan tanqidchilikning adabiy hayotdagi ahamiyati behad oshib, maqsad va vazifalari esa tubdan o'zgargan edi. Ayni kunda tanqidchilik yozuvchi yoki adabiy asarni faqat tanqid qilish emas, balki adabiy asar yoki hodisaga haqqoniy baho berish, undagi yutuq va kamchiliklarni xolislik bilan yoritishday dolzarb vazifalarni o'z oldiga qo'yan.

Dunyo adabiy tanqidchiligida zamonaviy adabiy hayotda sodir bo'layotgan jarayonlarni kuzatish, bu jarayondagi yetakchi tamoyillarni aniqlash, adabiy asarlarga munosabat bildirish, ularni odatda shu davrning g'oyaviy va estetik talablari asosida ilmiy tadqiq qilishga e'tibor kuchaymoqda. Tanqidchilikning adabiy portret, adabiy tanqidiy maqola, taqriz, bibliografiya, adabiy sharh, esse, bahs, suhbat, ochiq xat, pamflet singari janr ko'rinishlarini tahlil va tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ko'lami ortib bormoqda. Adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikning rivojida tanqidchilarning ijodini o'rganish dolzarblik kasb etadi.

Keyingi yillarda Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlarning milliy adabiyotda aks etishi, adabiy-tanqidiy tafakkurda oshkorlik, ijodiy shijoatkorlik sezila boshlangani ijobiy holdir. “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak”¹ ekanligini inobatga olib, adabiy-tarixiy manbalarni va ijod namunalarini xolis o'rganish, ularni tahlil hamda talqin qilishda yangicha mezonlar asosida yondashish, o'zbek adabiy tanqid va adabiyotshunosligining keyingi yarim asrlik rivoji, yutuq va muammolarini, xususan, mashhur olim hamda mutafakkir Ozod Sharafiddinovning serqirra ijodini bevosita adabiy jarayon kontekstida tadqiq etish bugungi kunning zarurati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish to'g'risida”, 2017-yil 18-apreldagi PQ-2894-son “Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'da Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi “Taraqqiyot yo'limizning shiddati yanada oshaveradi” mavzusidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2018-yil, 29-dekabr.

“O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilishida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiy-estetik tafakkur olamining buyuk daholari – Aristotel, Forobiy, Alisher Navoiy va keyingi asrlarda bu sohada ulkan ilmiy-adabiy meros qoldirgan allomalar ijodi keng yoritilgan.² Ana shunday buyuk siymolardan biri – Ozod Sharafiddinovning serqirra ijodi ma‘lum darajada o‘rganilgan, olim ijodining muayyan qirralarini yoritishda H.Yoqubov, A.Rasulov, S.Sodiqov, I.G‘afurov, U.Normatov, B.Nazarov, N.Karimov, H.Umurov, S.Umirov, M.Qo‘shjonov, B.Karimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev, U.Qosimov, A.Nosirov, N.Yo‘ldoshev, M.Qo‘chqorova kabi adabiyotshunoslarning ishlarini ko‘rsatib o‘tish lozim.³

Ozod Sharafiddinov ijodiga bag‘ishlangan qator ilmiy-adabiy anjumanlar o‘tkazildi. “Matonat va muhabbat”, “Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida” to‘plamlari va “Tanlangan asarlari” bosilib chiqdi. Professor A.Rasulovning “Ozod Sharafiddinov” risolasi⁴ va asari nashr etildi, Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan hujjatli filmlar yaratildi. Shuningdek, XX asr adabiyoti va tanqid-adabiyotshunosligi muammolari bo‘yicha

² Аристотель. Поэтика. – Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1980. – 149 б.; Кулешов В.И. История русской критики. – Москва, 1978. – 109 с.; Самарин Р.М. Зарубежная литература. – Москва, Высшая школа, 1978. – 208 с.; Андре Моруа. Литературные портреты. – Москва, Наука, 1971. – 178 с.; Сент-Бйов. Литературные портреты. – Москва, 1970. – 208 с.; Зарубежная эстетика история литературы. – Москва, 1987.; Бурсов В. Критика как литература. – Ленинград, 1987. – 144 с.; Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-jild. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013. – 400 b.

³ Ёқубов Ҳ. Танқид ва адабиётшунослик тарихига бир назар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1967. – 290 б.; Ҳайитметов А.А. Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1978. 357 б.; Nazarov B. va boshqalar. O‘zbek adabiy tanqidchiligi. – Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2012. – B. 432.; Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Фан, 1993. – 378 б.; Умуров Ҳ. Таҳлил санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 278 б.; Шермухаммедов П. Танқиднинг жозиба сири. (сўз боши). Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 460 б.; Содиков С. Абдулла Қаҳҳор ижоди ва адабий танқид. – Тошкент: Фан, 1990. – 254 б.; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талкин муаммоси. Қодирийшунослик асосида. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2002. – 258 б.; Ёқубов И. Отажон Ҳошимов адабий-танқидий мероси. – Тошкент: Чўлпон НМИУ, 1995. – 379 б.; Расулов А. Бадийлик-безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б.; Қосимов У. Ўзбек адабиёти ва танқиди тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2006. – 238 б.; Ўзбек адабий танқиди тарихи. XX аср. Антология. – Тошкент, 2011. Озод Шарафиддинов замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 478 б. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari. – Toshkent; Sharq, 2008. – 398 b.; Normatov U. Yetuklik.– Toshkent: Adabiyot va san‘at, 2009.– 118 b.; Alimbekov A. Yulduzning besh qirrasini. – Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2017. – 340 b.; Қўчқоров Р. Дунёга қарз берилган нур. Озод Шарафиддинов. Замондошлар хотирасида – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 209.; Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Muharrir, 2011. – 60 b.; Qo‘chqorova M. Abdulla Qahhor Istiqlol adabiyotshunosligi ko‘zgisida – Toshkent: Akademnashr, 2018.– 256 b.; Adabiyotimiz faxri.–Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 328 b.; Қаҳҳорова К. Чорак аср ҳамнафас. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2007. – 378 б.

⁴ Расулов А. Озод Шарафиддинов. – Тошкент: ЎЗМУ нашриёти, 2001. – Б.147.

ilmiy-tadqiqot ishlarida ham Ozod Sharafiddinov ijodiga ko'p bora murojaat qilingan. Ammo ulardagi hukmron mafkura talablari bilan bog'liq ayrim qarashlar, xususan, jadid adabiyoti, Cho'lpon, Hamza, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Tog'ay Murod kabi adiblar ijodi bo'yicha biryoqlama talqinlar va bahsli fikr-xulosalar bugungi adabiy-tanqidiy tafakkur nuqtayi nazaridan va Ozod Sharafiddinov asarlari asosida qayta baholanishini davr taqozo etadi, ularga xolis munosabat bildirish, muayyan tuzatish-o'zgartishlar kiritilishi va ayrim noaniqliklarni bartaraf etish ham ushbu tadqiqotning o'rganilganlik darajasini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining 2022-2027 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq "Adabiyotshunoslikdagi dolzarb masalalar hamda o'zbek adabiyotini zamonaviy usullarda o'qitish muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ozod Sharafiddinov ijodini XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillikning dastlabki yillaridagi adabiy hayot va ilmiy, badiiy-estetik jarayonlar bilan bog'liq tarzdagi yetakchi tamoyillari bo'yicha asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

badiiy ijod va adabiy tanqid uzviyligini, adabiy tanqid mohiyati va funksiyasini aniqlashtirish, Alihser Navoiy davri tanqid-adabiyotshunosligi an'analarini ochib berish;

Ozod Sharafiddinov ijodi misolida adabiyot va tanqidchilik rivoji muammolari, asosiy xususiyatlari va tamoyillarini oydinlashtirish, adabiy-tanqidiy tafakkur rivojida olim ijodining o'rnini, yorqin iste'dod egasining sermahsul ijodini o'rganish;

Ozod Sharafiddinovning XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillikning dastlabki yillaridagi adabiy portret yaratish mahorati, esse-badialarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

olim asarlari asosida adabiy tanqidchilik tadriji, janrlari va ijodiy mahorat, til va uslub masalalarini, olimning yosh iste'dodlarga ustoz-rahnamoligi, tarjimonlik va muharrirlik faoliyati, uning adabiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi ahamiyatini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Ozod Sharafiddinovning 1956-2005 yillar davomida yaratgan ijodiy merosi va vafotidan so'ng chop etilgan "Domlalar" va "Tanlangan asarlari" hamda arxiv materiallari, maktub va qo'lyozmalari namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillikning dastlabki davri o'zbek tanqid-adabiyotshunosligi rivojida Ozod Sharafiddinov ijodining o'rnini va munaqqid mahorati, ijodkor tili va uslubi masalalarining yoritilishi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, analitik, germeneytik, biografik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillikning dastlabki yillari (1956-2005) o'zbek tanqid-adabiyotshunosligi kontekstida Ozod Sharafiddinov ilmiy-ijodiy merosi, ijodkor shaxsiga xos mushohada-tafakkur hamda ruhiy kechinmalar ildiz-manbalari, adabiy jarayon va yetakchi tamoyillari asosida shakllangan tafakkur erkinligi hamda maslak-e'tiqodi sabab-omillari yoritilgan;

olim asarlarining o'ziga xosliklari yaqin o'tmish va jadidchilik hamda zamonaviy adabiyot namunalariga xolis munosabat, haqqoniylik, fikriy teranlik, birlamchi va mo'tabar manbalarga asoslanishi tahlil orqali ochib berilgan;

olimning birinchilardan bo'lib jadid adiblari ijodini xolisona tadqiq qilganligi Cho'lpon, Xamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlili asosida isbotlangan;

Ozod Sharafiddinov ijodida badiiy asarlar til xususiyatlari, adiblarning so'z san'atkorligi yoritilib, ayrim asarlar tili va uslubidagi nuqsonlar haqqoniy ko'rsatilganiga e'tibor qaratildi, sermahsul tarjimonlik va muharrirlik faoliyati hamda uning xalqimiz, yoshlarimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojidadagi beqiyos o'rni dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XX asr o'zbek va jahon adabiyotining o'nlab mumtoz shoir hamda adiblari ijodiy merosini tadqiq hamda targ'ib qilishda Ozod Sharafiddinov ijodining beqiyos o'rni, uning tadqiq obyekti, imkoniyatlari ko'rsatib berilgan;

olim asarlarining mavzu-muammolari va janriy xilma-xilligi, adabiy portret hamda esse-badia yaratish mahorati, tahlil va talqin saviyasi yuksakligi dalillangan;

Ozod Sharafiddinov ijodi misolida XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillikning dastlabki yillaridagi adabiy jarayon hamda ma'naviy-ma'rifiy hayotimizning muhim muammolari tahlil etilib, olimning boy ijodiy merosini o'rganish orqali Cho'lpon, Hamza, Qahhor, E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Rahmon va Tog'ay Murod asarlarini o'rganishdagi davr bilan bog'liq ba'zi biryozlamaliklar hamda mafkuraviy talqinlarning sayoz va bahsli ekanligi ochib berilgan;

istiqlol tufayli tafakkur va qarashlarimiz sinfiylik, partiyaviylik, nigilizm va soxta sotsialistik mafkuraviy aqidalardan xalos bo'lib, ko'plab yirik adiblar ijodi Ozod Sharafiddinov tomonidan ilmiy va badiiylik mezonlari asosida tadqiq etilishi tanqid-adabiyotshunoslikning jiddiy bir yutug'i sifatida tavsiflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosa va natijalar dissertant tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topganligi hamda ular ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholangani, aniq qo'yilgan muammolar tarixiy-qiyosiy, analitik, germenevtik, biografik va statistik usullar bilan yoritilgani, nazariy xulosa va farazlarning amaliyotga joriy etilganligi va ularning mutasaddi tashkilotlar tomonidan e'tirof etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, erishilgan natijalar adabiyotimiz va tanqid-adabiyotshunoslik tarixini yangi nuqtayi nazardan o'rganish va ularga baho berishda muhim va ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari, natija va xulosalaridan "Adabiyotshunoslik", "Adabiyot tarixi", "Adabiy tanqid va hozirgi

adabiy jarayon” hamda “Ma’naviyat asoslari” fanlari bo‘yicha maktab va oliy ta’limga mo‘ljallangan darslik, o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirishda va ular asosida dars mashg‘ulotlari tashkil etishda hamda ushbu fanlardan bitiruv malakaviy ishlari va kurs ishi loyihalari tayyorlashda yordamchi manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tanqid va adabiyotshunosligimiz rivojida Ozod Sharafiddinov ijodining o‘rni va ahamiyati tadqiqi davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillikning dastlabki yillari (1956-2005) o‘zbek tanqid-adabiyotshunosligi kontekstida Ozod Sharafiddinov ilmiy-ijodiy merosi, ijodkor shaxsiga xos mushohada-tafakkur hamda ruhiy kechinmalar ildiz-manbalari, adabiy jarayon va yetakchi tamoyillari asosida shakllangan tafakkur erkinligi xususidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan PZ-20170927147 “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 11-oktyabrdagi № 04/1-2802-son ma’lumotnomasi). Natijada XX asr o‘zbek va jahon adabiyotining o‘nlab mumtoz shoir hamda adiblari ijodiy merosini tadqiq hamda targ‘ib qilishda Ozod Sharafiddinov ijodining beqiyos o‘rni, uning tadqiq obekti, imkoniyatlari keng va rang-barangligini ochib berishga erishilgan;

olim asarlarining o‘ziga xosliklari yaqin o‘tmish va jadidchilik hamda zamonaviy adabiyot namunalariga xolis munosabat, haqqoniylik, fikriy teranlik, birlamchi va mo‘tabar manbalarga asoslanganligi haqidagi ilmiy takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2024-yil 23-avgustdagi № 344/1-son ma’lumotnomasi). Natijada olim asarlarining mavzu-muammolari va janriy xilmaxilligi, adabiy portret va esse-badia yaratish mahorati, tahlil va talqin saviyasi yuksakligini chuqurroq tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish imkonini bergan;

Ozod Sharafiddinov ijodi esse-badialarining o‘ziga xosligi, adabiyot va tanqid-adabiyotshunoslikdagi ahamiyati hamda tarjimonlik, muharrirlik, shuningdek, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muammolar talqini masalalari, Yoshlar ishlari agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan targ‘ibot tadbirlarida hamda adib ijodini yoshlarga targ‘ib qilish maqsadida uchrashuvlarda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Jizzax viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasining 2024-yil 1-noyabrdagi № 01-08/372-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar jamiyatning badiiy-ilmiy mazmundagi uchrashuvlarini tashkil etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 10 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida

ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shuningdek, xorijiy jurnallarda 10 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan tarkib topgan. Ishning umumiy hajmi 124 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'ringan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Badiiy ijod va adabiy tanqid uzviyligi**" deb nomlangan va unda "*Adabiyotshunoslik tarixiga nazar: adabiy tanqid mohiyati va funksiyasi*", "*Navoiy davri tanqid-adabiyotshunosligi an'analari*" o'rganilgan. Adabiy tanqidchilikka doir bir qator o'zbekcha va ruscha ensiklopedik va adabiyotshunoslik terminlari lug'atlarida "Adabiy tanqid"ga qisqacha shunday ta'rif berilgan: Kritika (*grekcha kritike* so'zidan olingan bo'lib, ma'nosi: muhokama qilmoq) adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi, mustaqil sohasi bo'lib, u adabiy jarayonni, yaratilayotgan badiiy asarlarning g'oyaviy-estetik qimmati, umumxalq adabiyotidagi o'rnini, yutuqlari va muammolarini, adabiy jarayondagi yo'nalishlarni aniqlab, baholab beruvchi ijod turidir.⁵

Badiiy ijod va tanqid-adabiyotshunoslik hamisha uzviy bog'liqlikda rivojlanib kelgan. Barcha asrlarda badiiy-estetik tafakkur rivojida adabiy tanqid – "ilmi naqd"ning muhim o'rni va ahamiyati e'tirof etiladi. Tanqid va adabiyotshunoslikda adabiy tahlil jarayonida ontologik va sistem tadqiq usullari yetakchilik qilib, ilmiy-qiyosiy tahlilga e'tibor kuchayishi, Navoiy davri va Sharq adabiyotshunosligining o'ziga xos poetika maktabi sifatida tan olinishi, adabiyotlararo ijodiy ta'sir va an'ana muammolarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilayotgani adabiy-estetik tafakkurning ijobiy tamoyili va muhim samarasidir. Ammo sobiq sho'ro davridagi nufuzli adabiy manbalar va darsliklarimizdagi biryoqlama ta'riflardan ayon bo'ladiki, Alisher Navoiy va Bobur singari buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-tanqidiy faoliyati va bu sohadagi nodir asarlari bepisandlik bilan unutilib kelingan. Xususan, Navoiyning yuzlab shuaroning shaxsi, iste'dodi, ijodiy salohiyati va siyrat chizgilari muxtasar aks etgan "Nasoyim ul-muhabbat" va "Majolis un-nafois" asarlari tanqid va adabiyotshunoslikning dastlabki mumtoz namunalari

⁵ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшunosлик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 167.

ekanligi ayni haqiqatdir. Yoxud “Boburnoma”, “Tarixi Rashidiy”, “Funun ul-balog‘a” asarlari va keyingi asrlarda yaratilgan qator tazkiralari hamda tarixiy-memuar, adabiy-estetik va hasbihol – biografik bitiklar ham muayyan darajada tanqid-adabiyotshunoslik manbalari sanaladi.

Temuriylar saltanati, xususan, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlar davrida ommaviy tus olgan va Alisher Navoiy rahnamoligida adabiy-ilmiy an‘anaga aylangan “oliy majlis” anjumanlarida mumtoz asarlar va shohbaytlar yuksak mezonlar asosida nozikta‘blik bilan tahlil etilgan. Navoiy, Jomiy kabi buyuk shoir va mutafakkirlar va yirik sultonlar huzurida o‘tkazilgan va iste‘dod darajalari turlicha bo‘lgan nazm va fazl ahli qatnashgan bunday nafosat majlislarida ko‘plab ijod durdonalarining fasohat-fazilatlarini ko‘rsatilgan. Bu ijodiy an‘analar keyinchalik Qo‘qon va Xorazm adabiy muhitida Amir Umarxon va Muhammad Rahimxon Feruz rahnamoligi va homiyligida ham davom etganligi tarixiy manbalardan ma‘lum. Navoiy ulkan faoliyati va bebaho asarlari va bu sohada yaratgan tizimli ta‘limoti bilan o‘zbek tanqid-adabiyotshunosligini yangi va yuqori bir pog‘onaga ko‘tarishga muvaffaq bo‘lgan.

Navoiyning ijodiy an‘analarini davom ettirgan Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va Shayxzodalar va Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Shukur Xolmirzayevlarning betakror ijodi va adabiy-tanqidiy faoliyati, jumladan, adabiyotshunoslik sohasidagi teran fikrlari ham, shubhasiz, ana shunday ezgu maqsadlarga qaratilgan edi.

Abdulla Qodiriy g‘araz, nafsoniyat va shaxsiyat dardlaridan toza bo‘lgan tanqidga yuksak ta‘rif beradi: “Hayotning yangidan yangi muvaffaqiyatlariga boshlovchi, ma‘rifat degan muammoning kaliti, madaniyat dunyosi beshigi ana shu tanqididir”⁶. Ammo mash‘um sovet tuzumi davrida adabiyot va san‘at asarlariga sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashish va kommunistik mafkura hukmronligi oqibatida iste‘dodli adiblarning asarlari ham ko‘p hollarda nohaq tanqidga uchragan va asossiz qoralangan.

O‘sha davr adabiy tanqidi professional saviyasi pastligi va asosiy funksiyasini bajarolmaganini Abdulla Qodiriy achinish bilan qayd etgan edi: “Tanqid so‘ziga berilgan ma‘no, bizningcha, durust emas. Tanqidning lug‘aviy ma‘nosi saralash, oroyishini olmoq degan so‘zdir.

Nainki yer bilan yakson etmak!”⁷ Jadidlar va ularga izdosh bo‘lgan adabiyotimizning to‘ng‘ich avlodi vakillari ham adabiyot va san‘atni muqaddas deb qadrlash bilan birga tanqidni ijodning muhim va ajralmas sohasi deb, bu jabhada ham faollik ko‘rsatganliklari bugungi adabiy jarayon va adabiyotshunoslik ilmi uchun ham ibratlidir.

Tanqid va adabiyotshunoslik ham Oktyabr inqilobi natijasida paydo bo‘lgan yangi bir mafkuraviy soha emas, balki uzoq tarixiy o‘tmish madaniyatimiz va adabiyotimizda va ayniqsa, Alisher Navoiy davrida jahon adabiy-estetik tafakkur olamida yuksak bir cho‘qqiga ko‘tarilgan to‘laqonli ijod sohasidir⁸. Shunday ekan, XX asr o‘zbek adabiyoti kabi tanqidchilik va adabiyotshunosligimiz tarixi ham

⁶ Абдулла Қодирий. Диёри бақр. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 112.

⁷ Абдулла Қодирий. Диёри бақр. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 114.

⁸ Адабиётимизнинг ярим асри. –Тошкент: Ғ.Ғулом номи Адабиёт ва санъат нашри, 1967. – Б. 160-244.

ko'p asrlik chuqur va boy adabiy-ilmiy meros va ijodiy an'analarga voris ekanligini aslo unutmasligimiz lozim. Shu ma'noda Ozod Sharafiddinovni ham buyuk Navoiyning sadoqatli izdoshi va munosib bir vorisi deb ta'riflashga to'la asos bor. Zero, Ozod Sharafiddinov mansub bo'lgan munaqqidlar va adabiyotshunoslar avlodining serqirra faoliyatini o'rganishda ham bu tarixiy silsilaning bardavomligi va ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Xususan, so'z san'atiga ehtimolli munosabatda va ijod namunalari xolisona baholashda Navoiy va Ozod Sharafiddinovga xos mushtaraklik adabiyot va tanqidchilik rivojining muhim omili sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Ozod Sharafiddinov asarlarida ta'kidlanganidek, hayot va ijoddagi mahdudlik va fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, oshkora tanqid va tahlillar orqali ma'naviy va mafkuraviy muhitning sog'lom bo'lishi va tafakkur erkinligiga erishish asosiy muammolardan sanaladi.⁹

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Adabiy-tanqidiy tafakkur rivojida Ozod Sharafiddinov ijodining o'rni”** deb nomlangan. Bobning *“Ozod Sharafiddinov: yorqin iste'dod va sermahsul ijod”* deb atalgan birinchi faslida so'z san'ati va tanqid-adabiyotshunoslik rivojida Ozod Sharafiddinov ijodining o'rni va munaqqid faoliyatining serqirraligi va ko'lamdorligi yaxlit-kompleks o'rganilgan. Olimning yarim asr (1956-2005) davomida yaratgan adabiy-tanqidiy asarlarining janr va mavzu rang-barangligi, portret va esse-badialarining o'ziga xosligi, ularning adabiyot va tanqid-adabiyotshunoslikdagi o'rni aniqlangan.

Darhaqiqat, XX asr va o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida o'zining noyob iste'dodi bilan alohida ajralib turgan Ozod Sharafiddinov fenomenining hayratli bir jihati ham shundaki, uning ilk chiqishlaridayoq chaqmoq misoli yorqin namoyon bo'lgan tug'ma tanqidchilik iste'dodi hech qachon xira tortmadi, shoirona qalb ehtirosi va jo'shqin ijodiy ilhomi umrining so'ngiga qadar, hatto surunkali va og'ir xastalik oqibatida ikki oyoqlaridan ajralib, to'shakka mixlanib qolgan kunlari ham susaymadi.

Hassos va talabchan adib Abdulla Qahhor ta'kidlaganidek, “Ozod Sharafiddinov adabiyot olamiga, aniqroq qilib aytsak, adabiy tanqidchilikka yonib kirdi va hozirgacha u mana shu fazilatni saqlab qoldi. Unda haqiqat ruhi, demokratik ruh, erkinlik ruhi kuchli”¹⁰. Oltmish yillar muqaddam aytilgan bu samimiy e'tirof va hayotiy haqiqatni olimning boshqa zamondoshlari ham yakdillik bilan ta'kidlashgani bejiz emas.

Bu jihatdan ham Ozod Sharafiddinov kamdan kam ijodkorlarga nasib etadigan baxt sohibi edi, deya olamiz. Ozod Sharafiddinovning serqirra, ulkan ijodkor va komil bir ustoz bo'lib tanilishining sabab-omillari va ildiz-manbalari ko'p. Lekin ular orasida qudratli bir omil borki, bu Ozod Sharafiddinovning yorqin iste'dodida va ummon qadar beqiyos bilim-zakovatida ko'rinadi.

Eng avvalo, ana shu betakror iste'dod va salohiyat tufayli Ozod Sharafiddinov ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo'lib tanildi: Ozod Sharafiddinov – O'zbekiston Qahramoni.

⁹ Ozod Sharafiddinov. Tanqidchilik kasbi haqida. Talant xalq mulki. –Toshkent: Fan, 1979. – B. 174-179.

¹⁰ Ozod Sharafiddinov zamondoshlari хотирасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 4.

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov. Endilikda bu ta’rif-iboralar bir-biri bilan yaxlit tushunchalarga aylandi (Abdulla Oripov).

Ozod Sharafiddinov, eng avvalo, talantli ijodkorlar, talabchan munaqqidlar bilan bir safda turib, adabiyot va tanqidchiligimizni jahon badiiy-estetik tafakkuri mezonlari asosida rivojlantirishga bosh qo‘shdi. Ayni vaqtda, iste’dodli tanqidchi va adabiyotshunoslar e’tiborini adabiy jarayon va so‘z san’atining dolzarb muammolarini hal etishga yo‘naltirishda ham mutasaddi bo‘ldi. Ozod Sharafiddinovning adabiy jarayon va tanqidning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan asarlari teranligi, tahlil va xulosalari hayotiyli va haqqoniyli bilan ajralib turadi. Ular yetuk ilmiy-adabiy saviyasi va munaqqidlik iste’dodi, badiiy-estetik tafakkuri yuksakligini ko‘rsatishi bilan allomani haqli ravishda XX asr tanqid va adabiyotshunosligining asoschilaridan edi, deb atashga to‘la asos beradi. G‘oyat murakkab va ziddiyatli kechgan XX asr adabiyotining o‘nlab atoqli vakillari hayoti va ijodini mufassal yorituvchi ko‘plab yirik tadqiqotlar, darslik, monografiya va salmoqli to‘plamlar yaratilgan.

Xalqimiz ma’naviyati va adabiy-estetik tafakkuri rivojida ham beqiyos ahamiyatga molik bo‘lgan mana shu xayrli ishlarning aksariyati bevosita Ozod Sharafiddinov rahnamoligi va mutasaddiligida yuzaga kelganligini va bularning evaziga sho‘ro davrida keskin tazyiq va ta’na-dashnomlarga ham duchor bo‘lganligini, afsuski, bugungi yoshlarimiz yaxshi bilmasligi mumkin.¹¹

Chunonchi, istiqlol g‘oyalarining yalovbardori bo‘lgan jadid adabiyoti va uning Cho‘lpon va Fitratdek allomalari yohud Mustafo Cho‘qay, Otajon Hoshimov singari talantli namoyandalari hayoti va ijodini keng o‘rganish va ularni xalqqa qaytarishdek ezgu ishlarda Ozod Sharafiddinov darajasida matonat va fidoyilik ko‘rsatgan ijodkorlar butun respublikamizda barmoq bilan sanarli. Zotan, Istiqlol tufayli bugun Cho‘lponlarning nomlarini qo‘rquv yoki hadik bilan emas, balki haqli ravishda faxr bilan tilga olishimizda va ularni adabiyotimizning eng porloq siymolari sifatida ardoqlashimizda Ozod Sharafiddinovning xizmatlari beqiyosdir. Bu tarixiy va ilmiy haqiqat muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari va butun turkiy davlatlarning yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlashi bilan poytaxtimizda 2023-yil mart va dekabr oylarida Jadid adabiyoti va uning porloq siymolariga bag‘ishlab o‘tkazilgan nufuzli xalqaro ilmiy konferensiyalarda ham o‘zining yorqin ifodasini topganligini faxr bilan ta’kidlash kerak.

Bobning *“Adabiy portret yaratish mahorati va esse-badialari”* deb nomlangan ikkinchi faslida Ozod Sharafiddinov ijodi misolida XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillikning dastlabki yillaridagi adabiy jarayon va ma’naviy-ma’rifiy hayotimizning muhim muammolari tanqid nazariyasi va ustuvor tamoyillariga asosan tahlil etilgan. Olimning boy ijodiy merosi va o‘nlab yirik tadqiqotlarini o‘rganish orqali uning ijod qamrovi va tafakkur ufqi behad keng, rang-barangligi va adabiy jarayonning murakkab manzaralari oydinlashtirilgan.

Jumladan, Cho‘lpon, Hamza, Qahhor, E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Rahmon va Tog‘ay Murod asarlarini o‘rganishdagi davr bilan bog‘liq ba’zi biryoqlamaliklar va

¹¹ Вохидов Э. Устоз сийратига чизгилар. Озод Шарафиддинов замондошлари хотирасида. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 13.; Ulug‘ov Abdulla. Zukko munaqqid. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali №2. 2024. – B.128.

mafkuraviy talqinlarning sayoz va bahsli ekanligi misollar asosida ochib berilgan va ayrim fikr-xulosalarga zarur tuzatish – aniqliklar kiritilgan; istiqloq tufayli tafakkur va qarashlarimiz sinfiylik, partiyaviylik, nigilizm va soxta sotsialistik mafkuraviy aqidalardan xalos bo‘lib, ko‘plab yirik adiblar ijodining Ozod Sharafiddinov tomonidan ilmiylik va badiiylik mezonlari asosida tadqiq etilishi tanqid-adabiyotshunosligimizning jiddiy bir yutug‘i sifatida tavsiflangan. Shu bilan birga Ozod Sharafiddinov asarlariga xos mushtarak fazilat, ya’ni ularning barchasi adabiyotga, ijodga nisbatan yoniq mehr va samimiyatga yo‘g‘rilganligi bilan alohida ajralib turadi. Tanqidchilik janrlarini shartli ravishda ikki qismga – adabiy jarayon hamda yozuvchining hayoti, ijodi masalalarini yorituvchi janr va shakllarga ajratish mumkin. Albatta, bunday bo‘linish shartli, chunki boshdan-oyoq adabiy jarayonni yorituvchi “sof” janrlar bo‘lmaganiday, faqat ijodkor hayoti va ijodini yoritish bilangina chegaralanadigan janrlar ham bo‘lmaydi.

Adabiyot va tanqidchiligimiz tarixida hamda shu jumladan, Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatida katta o‘rin tutuvchi esse-badia janri, asosan, XX asrning 60-yillaridan so‘ng xotira, esse, hikoya, maqola, adabiy o‘ylar tarzida yuzaga keldi. Asqad Muxtor, Pirmqul Qodirov, Mirtemir, Zulfiya, Shukur Xolmirzayevlarning bu davrda yaratgan esse va badialari adabiyotshunos olimlarimizning ilmiy izlanishlarida ma’lum darajada o‘rganilgan.¹²

Shu bilan birga esse janrining genezisi, shakllanish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot omillari va yetakchi tamoyillari singari masalalarni oydinlashtirish ham bugungi adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Ingliz, rus, o‘zbek tilidagi adabiyotlarda essega berilgan qisqacha ta’riflarga duch kelamiz. Biroq o‘zbek tilida nashr qilingan “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiyotshunoslikka kirish” darsliklari, “Adabiyotshunoslik ruscha-o‘zbekcha terminlarining lug‘ati” kabi qo‘llanmalarda, umuman, esse janrining nomi ham tilga olinmagan.¹³

Ozod Sharafiddinov tadqiqotlari, maqola va esselarida tarixiylik va badiiylik muammolari ham to‘g‘ri va yetarli darajada hal etib berilganligi bilan ham alohida e’tiborga loyiq. Ularda butun ijodi bir-biriga hamohang bo‘lgan atoqli va yetuk adiblarimizning sermazzmun hayot yo‘li, unutilmas shaxsi va ma’naviy qiyofasi, o‘ziga xos ovozi samimiy va haqqoniy aks ettirilganki, ularni hech ikkilanmay tanqid va adabiyotshunosligimizning yorqin sahifalari deya ta’riflash mumkin.

Bunday xususiyat Ozod Sharafiddinovning deyarli barcha asarlariga xos mushtarak bir fazilatdir. Chunonchi, allomaning umrining so‘nggi yillarida yozilgan “Domlalar” kitobida ham muallif asosan ziyolilar, maktab va universitetda ta’lim bergan ustozlari, do‘stlari, shogirdlari haqida hikoya qiladi.¹⁴ Unda ko‘plab g‘aroyib va achchiq taqdir egalarining mohirona chizilgan portret hamda xarakterlarini ko‘ramiz, muayyan shaxs va ijtimoiy hayot munosabatlari borasidagi an’anaviy qoliplarga sig‘maydigan, mardona e’tiroflardan tug‘ilgan

¹² Умиров С. Асқад Мухторнинг элчилари. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2005 йил 2-сон. Pirmqul Qodirovning adabiy –nazariy qarashlari (arxiv.uz). Karimov N. Mirtemir (ma’rifiy biografik roman). – Toshkent: Meriyus, 2012. – B.282.

¹³ Кўчқорова М. Ўзбек адабиётида эссе жанри. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 14-15.

¹⁴ Шарафиддинов О. Домлалар. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 280.

teran fikr va xulosalarga duch kelamiz. Darhaqiqat, XX asrning ikkinchi yarmi va Istiqlol davri o'zbek adabiyoti va tanqid-adabiyotshunosligi rivojini Ozod Sharafiddinov ijodisiz va jo'shqin faoliyatisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. Bu haqiqatni tadqiqotimizdagi jadvalda keltirilgan statistik ko'rsatkichlar ham tasdiqlishi mumkin.

